



Аёл эрининг жинсий аъзосини оғзига солиши ёки эр аёлининг жинсий аъзосини ўпиши жоизми? | 1

Ислом Нури

Savol-javobni o'qishingizdan oldin ma'lum qilinadigan bulsinkim, biz bu savol-javobni o'quvchilarimizning qiziqishlarini va foydalini talabasi ilmga bo'lgan himmatlarini sinash uchun kuydik. Saytimizda kuyib borilayotgan Olloxning guzal ismlarining ruhiyatidagi haqiqatdagi darslikning erta **Allox** ismi haqiqatidagi maqola 22 kuni 127 martda ko'rildi. Agar siz ana shu 127 kishidan biri bulysangiz Ollohga qo'shilib aytadigan akts sharoitida siz uchun foydalayoq bulgan ilmga qo'shiling!

Савол:

Аёл эрининг жинсий аъзосини оғзига солиши ёки эр аёлининг жинсий аъзосини ўпиб-ялаши мумкинми?

Жавоб:

Аллоҳ таолога ҳамду санолар, Пайғамбаримизга салавот ва саломлар бўлсин!

Эр хотин бир бирининг танасидан лаззатланиши жоиз. Аллоҳ таоло: "Хотинларингиз сизларнинг экинзорингиздир. Экинзорингизга хоҳлаган тарафингиздан келаверинглар" - деган (Бақара, 223). Лекин эр хотин ўртасидаги жинсий муносабатларда эр аёлининг орқасига ёки ҳайз вақтида унинг олдига яқинлик қилиши тақиқланади. Аллоҳ таоло: "Ҳайз вақтида аёлларингиздан (яъни уларга яқинлик қилишдан) сақланинглар" - деган (Бақара, 222). Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки, эр хотинлик муносабатларида исломий одобларга риоя



қилиш керак. Аёл эрининг жинсий аъзосини оғзига солиши ёки эр аёлининг жинсий аъзосини ўпиши исломий одобларга зид. Қолаверса, одатда жинсий аъзолар нажосатдан холи бўлмайди. У ердаги нажосатларни оғизга кириши эса ҳаромдир. Шунингдек, жинсий аъзони ўпиш вақтида мазий чиқиб кетиш эҳтимоли бор. Мазийнинг нажосат эканида уламолар ўртасида хилоф йўқ. Шундай экан, эҳтиёт юзасидан бу ишни қилмагани афзал. Аллоҳ таоло: “Албатта Аллоҳ тавба қилувчиларни ва (ҳар хил нажосатлардан) покланувчиларни севади” - деган (Бақара, 222).

Нажосатдан тозаланган жинсий аъзони оғизга солишнинг ҳаромлигига очиқ далил келмагани учун биз бу ишни ҳаром дея олмаймиз. Лекин ҳар хил нажосат бўлиши мумкин бўлган аъзоларни Куръон ўқийдиган оғизга солиш ярашмайди, валлоҳу аълам!